




2021-yil yanvar-iyul oylarida
Jizzax viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilmalilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 476,1 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **822,3 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,9 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyul oylarida)

**3 476,1
mlrd. so'm**

120,9 %

**822,3
mlrd. so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi


2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning iyul oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **198,5** mlrd. so'mga o'sdi va **573,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **86,6** mlrd. so'mga kamaydi va **354,7** mlrd. so'mga tashkil etgan.

2021- yilning iyun oyiga nisbatan joriy yilning iyul oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **92,7** mlrd. so'mga kamaydi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning iyun oyiga nisbatan 2020- yilning iyul oyida xizmatlar hajmi **205,7** mlrd. so'mga kamaydi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyul oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | 2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|---|------------------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 3476,1 | 120,9 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 156,3 | 115,9 |
| Moliyaviy xizmatlar | 914,5 | 125,8 |
| Transport xizmatlari | 537,1 | 113,2 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 526,4 | 112,9 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 91,8 | 108,7 |
| Savdo xizmatlari | 1 072,7 | 116,2 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 76,4 | 116,7 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 163,5 | 152,2 |
| Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar | 66,8 | 151,8 |
| Ijara xizmatlari | 77,3 | 133,7 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 83,3 | 120,2 |
| Shaxsiy xizmatlar | 96,1 | 117,6 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 48,6 | 121,8 |
| Boshqa xizmatlar | 91,7 | 129,8 |

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari



Ijara xizmatlari



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

Savdo xizmatlari

30,9 %

Moliyaviy xizmatlar

26,3 %

Transport xizmatlari

15,5 %

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

4,7 %

Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari

4,5 %

Shaxsiy xizmatlar

2,8 %

Boshqa xizmatlar

2,6 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **30,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,4 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari umumiylajmiy hajmning **31,0 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,4 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmogda.

2021- yil yanvar-iyul oylarida yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**52,2 %**), sog'liqni saqlash xizmatlarda (**51,8 %**), ijara (**33,7 %**), boshqa xizmatlar (**29,8 %**), moliyaviy xizmatlar (**25,8 %**), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**21,8 %**), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**21,8 %**) hamda, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlarda (**20,2 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklavlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**8,7 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 136,3 %.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – 34,0%.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'r-satilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-iyul

2021- y. yanvar-iyul

43,1

56,9

43,8

56,2

Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2021- yil yanvar-iyul oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi **56,9 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida yuk tashish xizmatlarining ulushi **43,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Umumiy avtomobil transporti xizmatlari hajmida
hududlarning ulushi, % da
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)



2021- yil yanvar-iyul oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **526,4** mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi **12,9%** ga oshdi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Sharof Rashidov (33,4 %), Jizzax shahri (16,4 %), Zomin (10,7 %), Baxmal (9,8 %), G'allaorol (8,7 %), Zarbdor (4,6 %) va Do'stlik (3,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Arnasoy tumanida qayd etildi (0,7 %).

**Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)**



2021- yil yanvar-iyul oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Jizzax shahri (19,6 %), Sharof Rashidov (14,6 %) va Do'stlik (13,6 %) tumanida erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Forish (106,5 %) va Baxmal (108,0%) tumanlarida qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **30,9 %** ni tashkil etib, bu esa **1 072,7 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **823,3mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **31,0%** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

823,3

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

1 072,7

87,3

O'sish sur'ati, % da

116,2

2020- y. yanvar-iyul

2021- y. yanvar-iyul

2021- yil yanvar-iyul


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **81,8 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)



Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosini,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda



Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar



Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **81,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyul oylarida)

2021- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **914,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **713,5** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **26,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **26,9 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **201,0** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **25,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **136,3 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,7%** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,0%** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **1,3%** ini tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar



**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **93,5 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,2 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,3%**.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)

2021- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **156,3** mlrd. so'm darajasida belgilandi.


2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **115,9 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turi hajmi **133,1** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiyligi hajmining **5,0 %** iga teng bo'lgan.
O'sish sur'ati esa **114,8%** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

Jami hajmdagi ulushi

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-iyul oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **163,5** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiylajmidagi ulushi **4,7 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **152,2 %** ni tashkil etdi.

**103,9
mlrd.
so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**163,5
mlrd.
so'm**

**2020- y.
yanvar-
iyul**



**2021- y.
yanvar-
iyul**

112,5 %

**O'sish sur'atlari,
% da**

152,2%

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **103,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida o'sish **12,5 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyul

Yashash bo'yicha
xizmatlar

89,2 %

10,8 %

Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

8,5 %

91,5%

2020- y. yanvar-iyul

2021- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'jajida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **89,2%** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **91,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- y.
Yanvar-iyul**




**2020- y.
Yanvar-iyul**

**66,8
mlrd. so'm**

1,9 %

151,8%



**Xizmatlar
hajmi**


**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

**O'sish
sur'ati**

**38,8
mlrd. so'm**

1,5 %

89,1 %



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyul oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|--|----------------------|----------------------|--------------|
| | | 2021- y. | 2020- y. |
| Jizzax viloyati | 127 694,7 | 120,9 | 101,0 |
| Jizzax shahar | 1 426,5 | 120,8 | 106,6 |
| viloyatlar: | | | |
| Arnasoy | 83,0 | 122,8 | 97,7 |
| Baxmal | 210,9 | 119,9 | 96,7 |
| G'allaorol | 277,7 | 121,0 | 97,4 |
| Sharof Rashidov | 436,6 | 120,3 | 98,3 |
| Do'stlik | 125,3 | 121,9 | 99,0 |
| Zomin | 296,5 | 125,5 | 87,7 |
| Zarbdor | 135,3 | 120,1 | 92,3 |
| Zafarobod | 75,4 | 121,6 | 93,2 |
| Mirzacho'l | 98,4 | 117,2 | 95,4 |
| Paxtakor | 126,7 | 119,7 | 96,5 |
| Forish | 143,0 | 118,6 | 90,0 |
| Yangiobod | 40,8 | 119,7 | 91,4 |


2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-iyul oylarida)



2021- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **41,0** % (2020- yil yanvar-iyul oylarida – 54,7%)ni Jizzax shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangiobod viloyatida – **1,2** % (2020- yil yanvar-iyul oylarida – **0,7**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**2 451,9
ming so'm**



Hajmning o'sishi

**541,3
ming so'mga**

118,5%

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatları hajmi **2 451,9** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 910,7** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,6 %** da qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- avgust holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni**




**2020- yilning
mos davriga
nisbatan ular
sonining o'sishi**

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **57,3%**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **17,0 %**, sanoat ulushi **16,3 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **9,4 %** ga to'g'ri keldi.

**2021- yilning 1-avgust holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **57,9 %** ni, sanoat **16,1 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **15,7 %** ni, qurilish **10,3 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

**2021- yilning 1- avgust I holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(42,6%)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **10,8 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,8 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tarkibidagi ulushi **1,9 %** ga teng bo'ldi.

Savdo – 42,6

Boshqa turdagি xizmatlar – 37,5

Yashash va ovqatlanish – 10,8

Tashish va saqlash – 4,8

Sog'liqni saqlash – 2,4

Axborot va aloqa – 1,9


2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **60,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **75,3%** ga to'g'ri keldi.

